OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

"TASDIQLAYMAN"
Termiz davlat universiteti
o'quv ishlari bo'yicha prorektor
________ R.To'rayev
2024-yil « __ » 08 ____

Ro'yxatga olindi: MD-70230104-1,06
2024-yil ___ 08 ___

# "JAHON ADABIYOTI MUAMMOLARI" fani
# O'QUV DASTURI
*(1-kurs magistratura talabalari uchun)*

**Bilim sohasi:** 200000 – San'at va gumanitar fanlar
**Ta'lim sohasi:** 230000 – Tillar
**Mutaxassisligi:** 70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

**Termiz-2024**

| Fan/modul kodi<br>*JAM204* | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>2 | | Kreditlar<br>4 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/ modul turi<br>majburiy | Ta'lim tili<br>o'zbek | | | Haftadagi dars soatlari<br>4 |
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama** |
| | **JAHON ADABIYOTI MUOMMOLARI** | 60 | 60 | 120 |

2\. **I. Fanning mazmuni**

Mazkur fanni o'qitishning bosh maqsadi- jahon adabiyoti tarixining muhim poetik-estetik qirralarini mujassam qilgan adabiy asarlarni o'rganish orqali badiiy-falsafiy qarashlardagi nazariy-badiiy evolutsiyani ko'rsatib berish hamda badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini, yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi hamda nazariy jihatdan tahlil qilish va talqin ko'nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, "Jahon adabiyoti" fani talabalarni jahon adabiyotining barkamol namunalari bilan tanishtirish, jahon adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy xususiyatlarini, davrlar osha badiiy xususiyatlarning eng muhim qirralari bilan tanishtirishni maqsad qilib olgan.

**Fanning vazifasi** - jahon adabiyoti namunalarining o'ziga xos, milliy va umuminsoniy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish asosida talabalarga bilim berish;

–magistrantlarga yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalarining bashariyat, millat va jamiyat ravnaqidagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish;

– magistrantlarga badiiy adabiyotni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish;

– magistrantlarga badiiy asarni idrok qilish hamda uni filologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish;

– magistrantlarni adabiyot va inson o'rtasidagi munosabatni badiiylik qonuniyatlari asosida tahlil qilishga o'rgatish;

–jahon adabiyotida yangi shakllanayotgan va ommalashayotgan adabiy hamda ilmiy metod va yo'nalishlar mohiyatini jamoatchilik fikriga tayangan holda talabalarga yetkazish;

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**"Jahon adabiyoti" fani bo'yicha ma'ruza mashg'uloti uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

**I-mavzu. Kirish. Jahon adabiyoti muammolari faniga kirish**

| | |
|---|---|
| | “Jahon adabiyoti” fanining nomlanishi, obyekti, geografik miqyosi, davrlashtirilishi. Fanning maqsad va vazifalari. Jahon adabiyotining antik davri: Shumer, Misr, Hind, Xitoy, Yunon, Rim va Turkiy xalqlar adabiyoti. Ularning o‘zaro mushtarak va farqli jihatlari. Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy–madaniy yondashuv. Mif va jahon adabiyoti.<br>**2-mavzu. Jahon adabiyotida sinkretizm va mifologiya muammosi**<br>Hududiy va milliy tarkibi: Shumer – Bobil adabiyoti, Misr adabiyoti, Eron adabiyoti, Hind adabiyoti, Xitoy adabiyoti, Markaziy Osiyo adabiyoti. Mifologiyasi, adabiy namunalari, qadimgi Sharq xalqlari adabiyotining jahon adabiyotiga ta’siri masalasi. Shumer adabiyoti jahon adabiyotining ibtidosi sifatida. Shumer adabiyoti yodgorliklarining ko‘lami va janrlari. “Bilgamish haqida doston” eposi. Bilgamish – abadiy hayot izlovchi epik qahramon. “Avesto” – Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligi.<br><br>**3-mavzu. Qadimgi adabiyotda epos muammosi**<br>Qadimgi Sharq adabiyotining antik adabiyot bilan mushtarak jihatlari: mifologiyadagi va eposdagi mushtaraklik. Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari. Dostonlarning mavzusi, tarixiyligi va mifologik elementlari. Axill va Odissey obrazlarida aks etgan Gomerning axloqiy-estetik qarashlari. “Odisseya” va “Alpomish”. Gesiodning “Mehnat va kunlar” didaktik asari. Gesiod va Sharq didaktikasi. Yunon dramasi: Esxil, Sofokl, Evripid. Yunon lirikasi. Monodik va tantanali lirika. Elegiya va Yamb. Yunon lirikasida vazn.<br><br>**4-mavzu. Antik davrda drama muammosi**<br>Antik davr dramalari tahlili, dramalardagi tarixiy faktlar va yanglishliklar muommosi. Davr masalasi. Antik davr adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari va yo‘nalishlari<br><br>**5- mavzu: Rim adabiyoti: epos, komediya, komik obraz va komizm muammosi.**<br>Rim adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari va yo‘nalishlari. Dastlabki Rim shoirlari. Rim adabiyotida tarixshunoslik. Rim adabiyotining “oltin davri”. Vergiliyning “Eneida” dostoni. “Bukolikalar” va “Georgikalar”. Rim poeziyasining o‘ziga xosliklari. Goratsiy ijodi. Goratsiy “Epodlar”i, “Satiralar”i va “Nomalar”i. Rim elegiyasi va Ovidiy ijodi. Ovidiyning “Metamorfozalar” asari. Imperiya davri Rim adabiyoti. Rim adabiyoti va keyingi davr Yevropa adabiyoti.<br><br>**6-mavzu: Jahon adabiyoti tarixida o’rta asrlar adabiyoti muammosi.**<br>Fransuz, ispan, nemis qahramonlik eposlari. XII – XIII asrlarda ritsarlik – kurtuaz adabiyoti. Ritsarlik adabiyotining o‘ziga xosliklari va shakllari. Ritsarlik adabiyotida sharqona javonmardlik va axiylik masalalari. O‘rta asrlarda shahar adabiyoti va uning janrlari.<br><br>**7-mavzu. Jahon uyg’onish adabiyoti muammosi (umumnazariy masalalar).**<br>Yevropa uyg‘onish davri adabiyotining davrlari, omillari va o‘ziga xosliklari |

Asar xususida M.Baxtin tadqiqotlari. Roman talqinida xalq kulgu madaniyatining o‘rni. Asarda kinoya va komiklik hamda uyg’onish davri belgilarining aks etishi. Ijtimoiy, falsafiy va estetik qarashlardagi yangilanishlar. Uyg‘onish davri ingliz lirikasi, eposi va dramasi. Adabiy muhit. K.Marlo ijodi. Dramaturgiya va teatrchilik. Globus teatri. Vilyam Shekspirning hayot yo‘li. Shekspir lirikasida sonetning tutgan o‘rni va yangilanishi. Dramaturgiyasi.

**8-mavzu: Italyan Renessans estetikasi va Dante**

Italiya uyg‘onishi. Italiya uyg‘onish davri adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Dante ijodi. Dante – o‘rta asrlarning oxirgi va uyg‘onish davrining ilk shoiri. Dante va Sharq madaniyatilirikasi. J.Bokkacho va Italiya uyg‘onishida nasr, “Dekameron” va “Ming bir kecha” asarlarida adabiy ta’sir.

**9-mavzu. Ispan uyg’onish adabiyoti muammosi va Servantes**

Uyg‘onish davri adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Uyg‘onish davri adabiyotining o‘ziga xosligi. Uyg‘onish davri adabiyotining nazariy asosi va janrlari. Ispan klassitsizmi va uning vakillari.Ispaniyada uyg‘onish davri adabiyoti.Servants ijodining ahamiyati.

**10-mavzu. Rable va fransuz uyg’onish adabiyoti muammosi.**

Fransua Rable biografiyasi va ijodi. “Gargantyua va Pantagryuel” asari

Ma’rifatchilik adabiyotining klassik ma’rifatchilikdan farqi va o‘ziga xosligi. Angliya ma’rifatchiligi. Ingliz ma’rifatchilik adabiyotining yo‘nalishlari, vakillari va janrlari. Fransuz ma’rifatchilik harakatining o‘ziga xosligi.Ma’rifatchilik adabiyotinig ahamiyati.

**11-mavzu. Ingliz uyg’onish adabiyoti va Shekspir poetikasi**

Ingliz romantizmida Bayron va Shellining tutgan o‘rni. Bayron ijodida shaxs erki va xalq ozodligi masalasi. Romantizmning tarixiy asoslarda aks etishi. Romantizmning jahon adabiyotidagi o‘rni.

**12-mavzu. XII asr nemis adabiyotida urush mavzusi va “urush odami” obrazi**

XII asr nemis adabiyotida urush mavzusi va “urush odami” obrazi muommosi, davr masalasi, yozuvchida uslub muommosi,

**13-mavzu. XVII-XVIII asrlar adabiyotida adabiy oqimlar muammosi**

AQSh va Kanada adabiyoti: U. Folkner asarlarida til va uslub. E. Xeminguey asarlarida inson talqini. U.Stoyron, R.Ellison, D.Selendjelar ijodida Amerika yoshlari fojeasi. Kanada adabiyotining dastlabki shakllanish davri (XVI-XVII asrlar).

**14-mavzu. XVI asr Ispan adabiyoti: klassitsizm, barokko va konseptizm. Jahon adabiyotida realizm muammosi.**

Ispaniyadagi Uyg'onish davri adabiyoti o'zining buyuk o'ziga xosligi, bu Ispaniyaning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. 15-asrning ikkinchi yarmida burjuaziyaning yuksalishi, sanoat va tashqi savdoning

o'sishi, kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi va feodal institutlari va feodal dunyoqarashining zaiflashishi.

**15-mavzu. Jahon modernizmi: falsafiy, ijtimoiy-psixologik omillar, yo'nalish va oqimlar.Postmodernizm adabiyoti.**

Zamonaviy Yevropa adabiyoti. Modernizm hodisasini yuzaga keltirgan tarixiy-ijtimoiy omillar. Modernizm estetikasi va Ortega Gasset. Modernizmda absurd muammosi hamda yevropasentrizm masalasi. Absurd dramaturgiyasi. Ong oqimi muammosi va psixoanaliz. Shakl va mazmun sathidagi evrilishlar. Xos va avom adabiyoti o'rtasidagi chegara.

Postmodernizm adabiyoti: Postmodernizm va neorealizm hodisalari. Madaniyatlar sintezi. Postmodern adabiyotning mazmun-mohiyati, namoyandalari. Universal gumanizm, jami tirik mavjudotga teng qarash.

***III.* Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

*Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

Qadimgi Yunon afsona va miflari" », «Hind miflari» asarlari tahlili

"Alpomish" va "Bilgamish" eposlarining qiyosiy tahlili

"Maxabxarata" va "Iliada" eposlari qiyosiy tahlili

Qadim Yunon dramalari: «Shoh Edip», «Zanjirband Prometey», «Medeya»

Apuleyning "Oltin eshak" va Ovideyning "Metamorfaza" asarlari

"Rolland haqida qo'shiq» fransuz qahramonlik eposi-Yevropa xalqlari qahramonlik eposlaming mukammal namunasi sifatida.

Dante ijodida sharq motivlari.

Shekspir ijodida tragizmning o'rni.

Servantes ijodida reallik va romantika uyg'unligi.

Rable va fransuz uyg'onish adabiyoti

Vilyamedyan, Baltasar Grasian va Kalderonlar ijodi tahlili.

Bualoning «Poetik san'at» asari.

Grimmelsgauzen ijodida urush mavznsi talqini.

U.Folknerning"Qora musiqa" asarida tragik pafos.

A.Kamyu va absurd adabiyot muammosi.

Amaliy mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

Eng qadimgi Sharq adabiyotida vatanparvarlik g'oyalari

Gomerning qahramonlar xarakterini yaratish mahorati

Ezop masallarida didaktika

"Medeya" tragediyasi va "Argonavtlar" qissasi+

Musulmon adabiyotining g'oyaviy motivlari

| | |
|---|---|
| | XX asr Amerika adabiyotida modernistik oqimlar<br>D.Defoning “Robinzon Kruzo” romani badiiyati.<br>Yevropa sentimentalizmi estetikasi<br>XIX asr nemis va ingliz romantizmi<br>F.Shillerning “Qaroqchilar” tragediyasida erksevarlik g‘oyalarining ilgari surilishi<br>Gyote “Faust” asarining asosiy g‘oyasi<br>Balzak asarlarida umuminsoniy qadriyatlar<br>F.Dostoyevksiyning “Jinoyat va Jazo” romanida psixologizm. Jahon adabiyotida naturalizm estetikasi<br>J.Rumiyning falsafiy qarashlari<br>Z.M. Boburning “Boburnoma” asari – qomusiy asar sifatida<br>D.Defoning “Robinzon Kruzo” romanida ma’rifat g‘oyasi<br>Gulliverning sayohatlari” romanida J.Svift fantastikasining realistik negizi<br>Jahon modernizm adabiyoti. J.Joysning “Uliss”, A.Kamyuning “Begona”, F.Kafkaning “Jarayon” asarlari modernizm namunalari sifatida<br>Lotin Amerikasi adabiyoti<br>Zamonaviy Sharq adabiyotida odam va olam munosabatlari talqini. O‘zbek adabiyoti jahon adabiyotining bir uzvi sifatida<br>Afrika mamlakatlari adabiyoti. Avstraliya adabiyoti.<br>Okeaniya mamlakatlari adabiyoti Malayziya adabiyoti. Indoneziya adabiyoti. Singapur adabiyoti. O’zbek adabiyoti jahon adabiyotining bir uzvi sifatida<br>F.Shillerning “Qaroqchilar” asarida tragik obrazlar.<br>Gyote “Faust” asarida umuminsoniy g‘oyalar.<br>Bayron ijodida romantik obrazlar.<br>Pushkinning “Evgeniy Onegin” she’riy romanida muhabbat motivlari.<br>Jahon adabiyotida Alisher Navoiy ijodiga qarashlar<br>Stendalning “Qizil va qora” romanida J.Sorel obrazi.<br>Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik”romanida badiiy tasvir.<br>F.Dostoevksiyning “Jinoyat va Jazo” romanida inson tabiati talqini.<br>***Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzularni talabalar o’qituvchi rahbarligida auditoriyada va auditoriyadan tashqari talaba mustaqil ishi talabidan kelib chiqib taqdimot qilish tavsiya etiladi.*** |
| 3. | **V.Ta’lim natijalari (kasbiy kompetentsiyalari)**<br><br>*Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:*<br><br>Jahon adabiyotidagi estetik qarashlar evolyutsiyasini badiiy adabiyot tarixi, adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati, yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalari, jahon adabiyotida yangi shakllanayotgan va ommalashayotgan adabiy-ilmiy metod hamda yo‘nalishlar mohiyati bo‘yicha **bilim berish;**<br>– talabalarda yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalarini nazariy, amaliy jihatdan talqin va tahlil qilish **ko‘nikmalarini hosil qilish;**<br><br>– badiiy adabiyotga jamiyat tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonni |

| | |
|---|---|
| | ezgulik va ma'naviy barkamollikka boshlovchi g'oyalar hamda inson ruhiyatiga aloqador eng pok tuyg'u va kechinmalar in'ikosi sifatida munosabatda bo'lish, shuningdek, jahon adabiyoti namunalarini adabiy-estetik hamda ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil va talqin qilishda faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyati **malakalarini hosil qilish.** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br><br>• ma'ruzalar;<br>• interfaolkeys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkorsavol-javoblar);<br>• guruhlardaishlash;<br>• taqdimotlarqilish;<br>• individualloyihalar;<br>jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchunloyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| | **VIII. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Hamdamov U, Qosimov A. Jahon adabivoti. T.: "Barkamol fayz media", 2017.<br>2. АртамановС.Д., идр. История зарубежной литературы XVII-XVIII в.в- М., 1989.<br>3. Зарубежная литература XIX века.-М., 1989.<br>4. Зарубежная литература XX века.-М., 2000.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>5. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаравон демократикЎзбекистан давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т.: Ўзбекисгон, 2016.<br>6. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қурамиз. - Т.: Узбекистан, 2017.<br>7. Жўрақулов У. Худудсиз жилва.-Т., 2006.<br>8. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: .Муаллиф. Жанр. Хронотоп. -Г., 2015. Сулаймонова Ф. Шарқ на Ғарб.-Т.,1997.<br>9. Қуронов Д., Рахмонов Б. Ғарб адабий-танкидий тафаккури тарихи очерклари.-Т., 2008<br>10. Комилов II. Тафаккур карвонлари. -Т., 1999.<br>11. Аристотель. Поэтика.-Т.,1980.<br>12. O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. –T: 1979.<br>**Badiiy adabiyotlar:**<br>Bilgamish. (Ziyotov Z. Shumerlar va Turon qavmlari). – T.: "Mumtoz so'z", 2012.<br>Gomer. Iliada. – T.: "O'zbekiston", 2013.<br>Firdavsiy. Shohnoma. – T.: "Adabiyot va san'at", 1984.<br>Dante. Ilohiy komediya. – T., "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 2000. |

Servantes. Don Kixot. – T., “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1990.
Gyote. Faust. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1974.
Shekspir. Saylanma. 3 jildlik – T.: “Fan”, 2007.
Navoiy A. Lison ut tayr. – T., “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 2015.
Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2016.
Balzak. Gorio ota. – T., “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1968.
Stendal. Qizil va Qora. – T.: “O’zbekiston”, 1986.
Mopassan. Novellalar. – T.: “O’qituvchi”, 1987.
Pushkin. Evgeniy Onegin. – T.: 1988.
Lermontov. Zamonamiz qahramoni. – T.: “O’zbekiston”, 2016.
Gogol. Revizor. – T.: “O’qituvchi”, 1974.
Turgenev. Otalar va bolalar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2015.
Tolstoy. Tirilish. 5 tomlik, 5-tom, – T., 1978.
Dostoevskiy. Jinoyat va jazo. – T.: 1977.
Chexov. Tanlangan asarlar. 3 tomlik. 1-tom, – T.: “O’zbekiston”, 1957.
Usta va Margarita. – T.: “Sharq”, 2008.
Xeminguey. Chol va dengiz. – T.: “Yosh gvardiya”’ 1986.
Jek London. Martin Iden. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2015.
Gabriel Garsia Markes. Yolg’izlikning yuz yili. – T.: “Sharq”, 2005.
Poelo Koelo. Alkimyogar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2005.
Kafka. Jarayon. – T.: “Sharq”, 2015.
Kamyu. Begona. – T.: “Yozuvchi”, 1995.
Jeyms Joys. Navqiron san’atkorning yoshlikdagi siyrati. – T.: “Akademnashr”, 2014.
Hesse H. Cho‘l bo‘risi. – T.: “Sharq”, 2006.
Aytmatov Ch. Qiyomat – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1989.
Nodar Dumbadze. Abadiyat qonuni. – T.: “Sharq”, 2006.
Robindranat Tagor. Hikoyalar. – T.: “O’qituvchi”, 2004.
Kobo Abe. Yashik odam. – T.: “O’qituvchi”, 2017.
Somerset Moem. Oy va sariq chaqa. – T.: “Davr Press” NMU, 2012.
Ekzupyeri. Kichkina shahzoda. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2017.
Jan Dominik Bobbi. Skafandr va kapalak. “Jahon adabiyoti” jur., 12-son, 2017.

**Elektron-axborotmanbalari:**

1. ҳттп://натлиб.уз – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси сайти
2. ҳттп://энциклопедия.уз – Ўзбекистон Миллий энциклопедияси сайти
3. ҳттп://зиёуз.уз – Ўзбек ва жаҳон адабиёти портали
4. ҳттп://зиёнет.уз – Ўзбекистон миллий таълим портали
5. ҳттп://китоб.уз/ - Республика болалар кутубхонаси
6. ҳттп://www.камолот.уз – “Камолот” ёшлар ижтимоий сайти

| | |
|---|---|
| | 7. хттп://www.инфолиб.уз – Республика Ахборот кутубхона маркази<br>8. хттп://рефератлар.уз –Рефератлар, тестлар, китобларвамедиатаълимсайти<br>9. хттп://боок.уз – Электрон адабиётлар кутубхонаси<br>10. хттп://транслате.гоогле.со.уз – Google –таржимонсайти<br>11. хттп://архив.уз – Рефератлар архиви |
| 7. | **Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**<br>Fanning o'quv dasturi O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasining 2024-yil 26 08 dagi 1 -sonli majlisida muhokama qilingan va fakultet Kengashiga tavsiya etilgan.<br><br>Fanning o'quv dasturi O'zbek filologiyasi fakulteti Kengashining 2024-yil 26 08 dagi 1 -sonli yig'ilishida muhokama qilingan va universitet o'quv-uslubiy Kengashiga tavsiya qilingan.<br><br>Fanning o'quv dasturi Termiz davlat universitetining o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 30 08 dagi 1 -son yig'ilishi bayoni bilan tasdiqlangan va o'quv jarayoniga foydalanishga tavsiya etilgan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>*Arslonov Abdimurod* – TerDU O'zbekadabiyotshunosligi kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, dotsent<br>*Xudoymurodova Hurriyat* - O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, falsafa fanlari doktori, dotsent |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>*Hamdamov Ulug'bek* – O'zFA professori, filologiya fanlari doktori<br>*Nasimov Ochil* - QarDU dotsenti, filologiya fanlari doktori |